

Axborot xizmatlarini ko'rsatish reglamenti

«Tarmoqning barcha korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar to'g'risida axborot berish»

1. Ko'rsatiladigan xizmatlar tasnifi (pasporti)

1.1. Ko'rsatiladigan xizmat nomi

“Tarmoqning barcha korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar to'g'risida axborot berish”

1.2. Ko'rsatiladigan xizmat natijasi

- *Tarmoqning barcha korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bilan jismoniy va yuridik shaxslarni tanishtirish;*
- *Jismoniy va yuridik shaxslarning, xo'jalik yurituvchi birlashmalarning, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan axborot almashish harakatlari samaradorligini oshirish;*

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar

Axborot va ma'lumotlarning joriy holatini kuzatish, uzavtosanoat.uz Veb-saytidagi ma'lumotlarni yangilash uchun materiallar tayyorlash va taqdim qilish ishlarini “O'zavtosanoat” AK bo'linmasining o'rnatilgan tartibda tayinlangan xodimlari amalga oshiradi.

1.4. Huquqiy asos

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 27 avgustdagi №181-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda davlat interaktiv xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi Nizom”;

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar.

1.6. So'rov yuborish muddati

Xizmat ko'rsatish uchun so'rov yuborish muddati belgilanmagan

1.7. Bajarish muddati

Axborot materiallarining strukturasi va tarkibi ularni taqdim qilishning zaruriyligi va ratsionalligi bilan belgilangan, biroq vaqt o'tishi bilan zarur bo'lgan holatlarga muvofiq o'zgarishi mumkin.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarni ma'lumot bilan ta'minlash

2.1. Ma'lumotlarning tarkibi va xajmi

uzavtosanoat.uz rasmiy Veb-saytiga murojaat qiluvchi Internet tarmoqlarining har qanday foydalanuvchisiga, tarmoqning barcha korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar elektron formatda taqdim qilinadi.

2.2. Keng ma'lumot berish

Tarmoqning barcha korxonalari mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlar uzavtosanoat.uz. saytida keltirilgan.

2.3. So'rov bo'yicha ma'lumot berish

*Faks orqali: 9-00 dan 18-00 gacha so'rov bo'yicha yozma hujjatlarni (3 varaqdan ko'p bo'lmagan) taqdim etish.
Elektron pochta orqali: kun davomida (24 soat) keng tarqalgan formatdagi matnda yozilgan har qanday yozma so'rovlarni qabul qilish (oddiy tekst, DOC, RTF, PDF formatdagi biriktirilgan fayllar yoki kelishuvga ko'ra boshqalari, 9-00 dan 18-00 gacha oddiy tekst yoki DOC, RTF, PDF biriktirilgan fayl formatidagi yozma hujjatlarni taqdim etish) yoki kelishuvga ko'ra boshqa formatdagilar, jo'natishga tayyor haqiqiy standartga ega tayyor fayllar, kerakli blankalar ham mavjud.*

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Ish vaqti 9-00 dan 18-00 gacha. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Zarur hujjatlar

talab qilinmaydi.

4.2. Xizmat to'lovi

Xizmat bepul asosda amalga oshiriladi

4.3. Davlat xizmatlarini ko'rsatishning ichki idoraviy tartibi

- - 1 Tartib: Axborot va ma'lumotlarning joriy holatini kuzatish, kompaniyada o'rnatilgan tartib bo'yicha Veb-saytda ma'lumotlarni yangilash uchun materiallar tayyorlash va taqdim qilish;
- - 2 Tartib: O'rnatilgan tartibda yangilash uchun ma'lumotlar ustidan umumiy nazorat o'rnatish;
- - 3 Tartib: Yangilanadigan ma'lumotlarning turli tildagi versiyasini tayyorlash;
- - 4 Tartib: O'rnatilgan tartibda ochiq nashr qilinishga tayyorlangan va tasdiqlangan ma'lumotlarni joylashtirish;

4.4. Rad etish uchun asos

Internet tarmoqlaridan foydalanuvchilar ma'lumotlar bilan tanishishlarini rad etish uchun asos yo'q.

5. Sifat bilan ta'minlash

5.1. Ko'rsatilgan sifatsiz xizmatdan shikoyat qilish

uzavtosanoat.uz. rasmiy veb-saytining foydalanuvchisi, "Fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish" bazaviy interaktiv xizmatidan foydalangan holda "O'zavtosanoat" AKga murojaat qilishi mumkin.